

INGLIZ ADABIYOTIDA AYOL YOZUVCHILAR

*Chirchiq Davlat Pedagogika Unversiteti
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida talabasi*

Fayzullayeva Naimaxon Dilshodbek Qizi

e-mail: fauxullayevanaima@gmail.com

Ilmiy rahbar: Kenjayeva Muxlisa Baxodir qizi

e-mail: mukhlisa.kenjaeva96@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi tarixidan boshlab ijod qilgan, ingliz adabiyotiga o'z hissasini qo'shgan ayol yozuvchilarning hayoti, hikoyalari va erishgan yutuqlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ingliz adabiyoti, qadimgi tarix, ayol timsoli, innovatsion yozuvchi, asarlar to'plami.

Bilamizki, har bir mamlakat o'z adabiyotida ayol obrazini milliy qarashlaridan kelib chiqqan holda turlicha tasvirlaydi. Bir tarafdin olib qaraganda, o'zbek nasrida ayol timsoli ona, turmush o'rtoq va uy bekasi sifatida ifodalangan bo'lsa, ingliz adabiyotida, bunga qo'shimcha ravishda ayollar ishbilarmon tadbirkorlar, ishchi xodimlar va boshqalar kabi vazifalarni bajarganlar. Shuningdek, ingliz adabiyotida ayollar obrazi vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi. Bundan tashqari, ayol yozuvchilarning asosiy tomonlari tarixiy jihatdan olib qaraganda ularning tajribalari jinsiga qarab shakillangan. Shu sababli ayol yozuvchilarning ijodlarini o'rganish alohida e'tibor talab qiladi. Ingliz adabiyotining tarixiga nazar tashlasak, birinchi taniqli ayol yozuvchilar orasida Enheduanna nomi bilan taniqli bo'lgan ayol yozuvchidir. Shuningdek, u eng qadimgi taniqli shoir bo'lgan. Va Inanna ma'budasi va oy xudosi Nanna Sinning oliy ruhoniysi edi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz adabiyotida ayol yozuvchilar eng qadimgi davrdan boshlab o'z faoliyatini boshlagan. Ammo, 17 – asrdan boshlab ayollar ikkinchi darajali fuqarolar bo'lib, tug'ilishidan otalari qarmog'iga o'tadi va keyinchalik turmush o'rtog'lariga topshiriladilar. Xulq atvor va fazilatlarini bo'yicha qat'iy talablar qo'yiladi. Shunga qaramasdan ushbu davrlarda - Aemilia Lanyer, Elizabeth Cary, Lady Mary Worth, Margaret Canvendish, Katherine Philips, Aphra Behn, Anne Finch kabi ayol yozuvchilar paydo bo'lgan. Bu davr adabiyotida ko'p ayol ijodkorlar dunyoning yurak – yuragiga kirib boruvchi asarlar yaratishdi. Bulardan, dramaturg va pank - shoirasi Afra Ben o'z davrining faqat qalami bilan tirikchilik qilgan birinchi ingliz ayoli edi. Afra Ben badiiy adabiyotning innovatsion yozuvchisi va fan va fransuz romantikasi tarjimoni edi. Uning eng mashhurlikka erishgan “Orunoko” romani bo'lgan. Bu romanning

asosiy jihati mahalliy xalqlar shahzodasi do'stligiga asoslangan edi. Orunoko qullikda aldanib qolgan, lekin ohir oqibat isyon ko'targan afrikalik shahzoda bo'lgan. Bu roman chiziqli tuzilishi va biografik hisobi tufayli ingliz romanining eng qadimgi na'munalaridan biri hisoblanadi. Adabiyot millat ko'zgusi. Har bir millat va mamlakat adabiyotini asarlarini o'qir ekanmiz, asardagi qahramonlari orqali o'sha millatning madaniyati ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, Ingliz ayol yozuvchilari o'z asarlarida ayolga bo'lgan ehtirom, ayollarning tafakkuri, o'ziga xos xususiyatlari, chidam va bardoshi kabi xislatlarni yaqqol ko'rsatib bergan. Ingliz ayol obrazini qoyilmaqom tarza ochib bergan, hozirgi kunda ko'plab kitobxonlarning sevimli ingliz ijodkori Jeyn Ostin tomonidan yozilgan "G'urur va Andisha" nomli romanidir. Bu romanda ayol timsolini Elizabet orqali ko'rishimiz mumkin. Elizabet nafaqat go'zal ko'rinish va oqilona fikr yuritishi bilan hammadan ajralib turgan. Shu sababli Jeyn Ostin ingliz ayollarini timsolini yaratgan mashhur yozuvchilardan biri deb tan olingan. Shuningdek, 1800-yillardan boshlab ko'plab ingliz ayol ijodkorlari adabiyotni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bulardan Sharlotte Bronte va Liliya Eveline Armstrong o'z davrining mashhur ingliz yozuvchilari bo'lgan. Armstrong fonetik tilshunos bo'lib, uning ko'zga ko'ringan eng mashhur asarlari 1926-yilda Ward bilan hamkorlikda yozilgan "A Handbook Of English Innotation" "The Phonetic Structure Of Somali" kitoblari bo'lgan. Yana bir tahlil natijalariga nazar tashlasak, Ingliz tarxini o'zgartirgan va dunyo tan olgan 10 ta ayol yozuvchilarni nomlari bilan tanishsak. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Jane Auten, Agatha Christie, Merry Shelly, Emily Dickinson, J.K. Rowling, Beatrix Potter, Sarojini Naidu, Alice Walker, Wislawa Szymborska va Sylvia Plath. Biz tanigan mashhur "Harry Potter" asarining Muallifi J.K. Rowlingga to'xtalib o'tsak, Biritaniyalik ingliz ayol yozuvchisi J.K. Rowling yolg'iz ona va yozuvchi. Uning asarlari insonga rux va kayfiyat bag'ishlashi bejiz emas albatta. Uning asarlari ko'roq fantastikaga qaratilgan va men o'qigan asari ham shundan iborat. 1997-yilda uning "Harry Potter" kitobi eng ko'p sotib olingan kitoblar qatoridan joy egalladi. Va dunyo reytingida g'alaba qozondi. Bunday yozuvchilar ingliz adabiyotida tan olingan mashhur yozuvchilardir.

Xulosa qilib aytganda, tarixdan bizgacha yetib kelgan ingliz ayol yozuvchilarning harakatlari be'samar ketmadi. Ular bizga ayol timsoli qanday bo'lishini va sabr bardoshini o'z asarlari, romanlari va she'riy to'plamlarida na'moyon qilib berishdi. Ingliz ayol yozuvchilari o'z adabiyotini rivojlantirish va o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun harakat qilishdi. Bundan esa hozirgi kunda yosh avlod ularni asarlaridan o'ziga kerakli bilim va malakalarni olishmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, ayol dunyo va insoniyatning boshlanishi hisoblanib, uning go'zalligi, boy va ma'naviy dunyosi shoir va

yo'zuvchilarni ilhomlantirgan. Shu sababdan, adabiyotning bosh qahramoni va bosh mavzusi ayoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjayeva Muxlisa Baxodir qizi, & Yusupova Shoira Batirovna. (2022). The Comparative Analysis of Adjectives in English and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 117–121. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/417>
2. Kenjayeva, M., & Yusupova, S. (2022). SEMANTIC ROLES AND FEATURES. Models and methods in modern science, 1(17), 60-67.
3. Shorxametov, Shotillo Safarovich, and Tursuntosh Isroilova. "HOW TO TEACH LEARNERS THROUGH DIDACTIC GAMES." Academic research in educational sciences 3.12 (2022): 415-420.
4. Kenjayeva Muxlisa Baxodir qizi, & Yusupova Shoira Batirovna. (2022). The Comparative Analysis of Adjectives in English and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 117–121. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/417>
5. Swift J. Proposal for correcting, improving and consolidating the English language. Available at: <https://royallib.com>
Bauer L. Watching English Change an Introduction to the Study of Linguistic Change in Standard Englishes in the Twentieth Century. New York: Longman Publishing, 1994.
6. Dowling T. From marvelous to awesome: how spoken British English has changed. Available at: <https://www.theguardian.com/uk/culture>
7. Flood A. Our ever-changing English. Available at: <https://www.theguardian.com/uk/culture>
8. Barton L. Net contributions: how the internet has influenced the English language. Available at: <https://www.bbc.com/news/technology-10971949>